

BO'LAJAK TARBIYACHILARDA MILLIY HUNARMANDCHILIK VA AMALIY SAN'ATGA DOIR PROFESSIONAL PROGRAMMANI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Abdurashidov Adxamjon, Ph.D

Qo`qon DPI dotsenti

KIRISH. Bugungi kunda ta'lism sifatini oshirish, shu jumladan, bo'lajak maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbyachilarini milliy hunarmandchilik va amaliy san'atni tatbiq etish professiogrammasiga ega kadr sifatida tayyorlash tizimini yaxshilash davlat organlari qarorlari, olimlarning tadqiqotlari, jamoat arboblarining chiqishlarida alohida ko'rsatib o'tiladi. Sifatli maktabgacha ta'limi amalga oshirish mamlakatimizda zarurat sifatda qaralayotganii hukumat farmon va qarorlarida alohida qayd etilgan.

Shu ma'noda bo'lajak maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbyachilarida milliy hunarmandchilik va amaliy san'atni tatbiq etish professiogrammasini takomillashtirish ta'linda sifat va samaradorlik, milliy qadriyat va sohaga zamon talablaridan kelib chiqqan holda integratsion yondashuv asosida tadqiq etish g'oyat muhim. Bo'lajak maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbyachilarida milliy hunarmandchilik va amaliy san'atni tatbiq etish professiogrammasi o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan hodisa bo'lib, sohada amalga oshiriliyotgan islohatlar jarayonida ta'lism tizimining bosqichlaridan biri hisoblangan maktabgacha ta'lism tashkilotlari faoliyatining muhim vazifalaridan biri maktabgacha yoshdagagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida kasbiy ko'nikmalarini ham shakllantirishdan iboratdir. Bo'lajak tarbyachilarining milliy hunarmandchilik va amaliy san'atni tatbiq etish professiogrammasini takomillashtirish OTMlarda atroficha o'rganilgan emas. Shunday ekan, bo'lajak tarbyachilarining milliy hunarmandchilik va amaliy san'atni tatbiq etish professiogrammasini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Professiogramma — kasblar yoki mutaxassisliklar to'g'risidagi tushunchalar bir tizimga solingan, mehnatning pedagogik-psixologik tomonlarini ochib beradigan, tartiblangan va o'zaro uzviy bog'langan, umumiyl vazifani bajarish uchun zarur bo'ladigan shaxsiy, umuminsoniy va kasbiy sifatlarni o'zida mujassam etgan, shaxsning kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishiga qaratilgan qisqa va asosli talablar majmuasi hamdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Hunarmandchilik vositasida ijodkorlik va mustaqil ta'limi rivojlantirish muammolari xorijiy olimlardan K.McConnel, S.Brew, Wood Robin, Macqueen W.M., Schnepp, J.Gerald, R.Howard kabilalar tomonidan o'rganilgan.

MDH olimlaridan I.L.Timonina, I.V.Jijina, A.A.Filozop, Ye.I.Pakulova kabilarning tadqiqotlarida milliy hunarmandchilik masalalari umumiyl tarzda yoritilgan. E.M.Pesherova o'z tadqiqotlarida O'rta Osiyo hududidagi badiiy hunarmandchilik, xususan, Qadimgi va O'rta asrlardagi kulolchilik tarixini tahlil qilgan. H.Z.Ziyoyev, G'.A.Ahmadjonov, H.N.Bobobekov, Sh.X.Vohidov, Q.Rajabov, N.Abdurahimova, Z.E.Azimova, M.B.Artiqova, X.T.Azizov, G.A.Agzamova va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Psixolog olimlardan G.I.Shchukina, M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishanova va boshqalar muammoning psixologik jihatlarini tadqiq etgan bo'lsalar, pedagogik fasilitasiya masalalari esa P.Nummi, D.Yo'ldosheva, N.M.Egamberdiyeva kabilarning ishlarda yoritilgan.

Bo'lajak tarbyachilarining milliy hunarmandchilik va amaliy san'atni tatbiq etish professiogrammasini takomillashtirish hozirga qadar o'zbek pedagogikasida mukammal tavsifini topmagan, balki u yoki bu masalaga bag'ishlangan ishlarda yo'l-yo'lakay to'xtalib o'tilgan. Mavzu yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlarda ushbu hodisani turlicha yondashuv, ya'ni talqin qilish mavjud. Bu sohada P.T. Magzumov, A.Sh.Magdiyev va N.Shodiyevlarning xizmatlari kattadir.

Ularning asarlarida o'smirlarning hayot yo'lini tanlashi uchun o'qituvchilar va ota-onalarning mas'uliyati to'g'risida fikr yuritiladi. Mazkur yondashuvlarda bo'lajak tarbiyachilarning milliy hunarmandchilik va amaliy san'atni tatbiq etish professiogrammasini takomillashtirish alohida kategoriysi sifatida tadqiq qilinmagan.

MUNOZARA VA NATIJALAR. Har qanday kasbiy faoliyat nazariyasи va amaliyotida mezonlarni belgilash, ularni asoslashga nisbatan umumiy talablar mavjuddir. Mazkur mezonlar shaxs shakllanishining asosiy qonuniyatlarini o'zida aks ettirish bilan birga, ta'lim sohasida miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlarga o'sib o'tishini ta'minlaydi. bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shakllantirishni ta'minlovchi pedagogik tizim mohiyatini asoslovchi mezonlar bir qator sifat ko'rsatkichlari yordamida ifodalanadiki, ularning aniqlanishi qayd etilgan mezonning ahamiyati xususida so'z yuritish imkonini beradi;

ikkinchidan, mezonlar o'lchanayotgan sifat ko'rsatkichining vaqt oralig'i, ijtimoiy madaniy muhit va talaba shaxsining rivojlanib borishi jarayonidagi o'zgarishini o'zida aks ettira olishi lozim;

uchinchidan, mezonlar mumkin qadar pedagogik faoliyatning barcha jahbalarini qamrab olishi zarur.

Tarbiyachining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayoni, ijodkorlik esa kasbiy faoliyatini loyihalashga bo'lgan obyektiv ehtiyoj sifatida qaraladi. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonini individual loyihalash g'oyalari kasbiy-pedagogik ta'limning obyektiv yetakchi mezoni bo'lib qolmoqda.

Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy shakllantirishning tashkiliy-metodik mezonlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- Kasbiy ta'lim mazmunining shaxsga yo'naltirilganligi. Mazkur mezonning amalga oshirilishi bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini quyidagi yo'nalishda o'zgartirishni ko'zda tutadi: o'qituvchining bir butun shaxs sifatida rivojlanishi, o'qituvchi ongini kasbiy faoliyatni yo'nalishida qayta yo'naltirilishi hamda o'qituvchining kasbiy faoliyatiga tatbiq etishi lozim bo'lgan ideal va qadriyatlarni o'zlashtirishi.
- Kasbiy ta'lim mazmunining kasbiy faoliyatga yo'naltirilganligi.
- Ushbu mezon birinchidan, o'qituvchining shakllanish jarayonini loyihalashning integral tavsifda ekanligini ta'kidlaydi; ikkinchidan, uni loyihalashning aniq shakllarini belgilaydi; uchinchidan, o'qituvchining ijodiy kuch-quvvatini ishga solish yo'llarini hamda vositalarini ko'rsatib beradi, bu bilan uni pedagogika fani va amaliyot bosib o'tgan yo'lni qayta takrorlamaslikka olib keladi.
- Kasbiy faoliyatning pedagogik akslanish (refleksiya) mezoni. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida mazkur mezonning amalga oshirilishi

o'qituvchida o'zini shaxs sifatida doimiy takomillashtirib borishga bo'lgan ehtiyojni tarbiyalaydi. Buning uchun u kasbiy fikrlash, refleksiv sifatlarni rivojlantiradi, aniq kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan shakl va metodlarni shakllantiradi. Bu o'rinda asosiysi – kasbiy faoliyat, ya'ni maqsad, faoliyatni amalga oshirish sharoitlari to'g'risida tushunchalar, harakat dasturi, faoliyat natijalarini baholash mezonlari, faoliyat natijalarini baholashni ratsional yo'lga qo'yish holatlarining aniqlanishidir.

Mazkur mezon o'qituvchi harakatlarining tavsifini hamda usullarini belgilab beradi. Buning uchun o'qituvchining pedagogik madaniyat timsoli sifatidagi kasbiy faoliyat modeli uning kasbiy xulqi uchun namuna bo'lib qoladi. Bularning hammasi o'qituvchining kasbiy takomillashuvga intiluvchanligini oshiruvchi shaxsning ma'naviy-axloqiy qarashlarini faollashtiradi.

XULOSA. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilayotgan kasbga yo'naltirish ishlari maktabgacha yoshdagи bolalarning kelgusida jamiyatda o'z o'rnini topishlariga katta yordam beradi. Bu jarayonda mintaqaviy kasblarni targ'ib qilish, ya'ni, bo'lajak maktabgacha

ta’lim tashkiloti tarbiyachilariga milliy hunarmandchilik va amaliy san’at bilan bilan bog‘liq kasblar to‘g‘risida ma‘lumot berish, to‘garaklar tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birgalikda bo‘lajak tarbiyachilarning milliy hunarmandchilik va amaliy san’atni tatbiq etish professiogrammasini takomillashtirish bo‘yicha OTMlardagi maktabgacha ta’lim fakuteti jamoasining vazifalarini, kasbga yo‘naltirish tadbirlarini amalgalash oshirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar bilan ta’minlashdan iborat.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan davlat talablari Ro`yxatdan o‘tish. 03.07.2018 yildagi 3032-son.
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan) 2022-yil nashr etilgan dasturi.
3. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun – T.: 2019. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019. 9 oktyabr. №209(7439)-son.
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.
5. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ozrGWXoAAAAJ&citation_for_view=ozrGWXoAAAAJ:_FxGoFyzp5QC
6. G Nazirova. Мактабгача катта ёшдаги болаларда халқ оғзаки ижоди воситасида миллий түрүп ҳиссини шакллантириш-ижтимоий педагогик зарурият сифатида. Science and innovation 1 (B8), 2067-2077
7. GM Nazirova. CONTENT AND PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PEDAGOGUES-EDUCATORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS/ International Academic Research Journal Impact Factor 7 (1), 6
8. NG Malikovna, MM Nurmatovna, Basic principles of technology for teaching methodological subjects in preschool education, ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact.
9. NA Sultonova, I Sh, D Xolqoziyeva - TECHNOLOGIES OF URBRINGING CHILDREN IN MODERN FAMILIES, European Journal of Research and Reflection in Ed, 2020
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:_FxGoFyzp5QC
11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:Se3iqnhoufwC
12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:IjCSPb-OGe4C
13. EM Akilovna, THE COMPETENCE OF THE EDUCATOR IN THE APPLICATION OF TECHNOLOGIES FOR THE ORGANIZATION OF HEALTH CARE WORK FOR CHILDREN OF PRESCHOOL AGE, INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN ...
14. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=x8zmCUkAAAAJ&citation_for_view=x8zmCUkAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC